

KORRUPSIYANI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR VA UNGA QARSHI KURASHISHNING AYRIM MASALALARI.

Mo‘minova Dilnoza Muhiddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
E-mail:dilnozamominova84@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda korrupsiya qanday holatlarda vujudga kelishi va qaysi omillar mansabдор shaxslarning poraxo‘rligiga shart-sharoit yaratib berishi mumkinligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining o‘rni va roli tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *korrupsiya, normativ hujjatlar, poraxo‘rlik, jamoatchilik nazorati, mansabдор shaxs.*

Hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqda tobora ko‘p qo‘llanilayotgan atamalardan biri bu korrupsiyadir. Korrupsiya albatta bugun paydo bo‘lgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan: “Har qanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shuday tashkil qilish kerak-ki, unda mansabдор shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”. Fransuz mutafakkir olimi Sharl Monteske esa bu borada “Asrlar tajribasidan ma’lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiiste’mol qilishga moyil bo’ladi va u ma’lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi” degan fikrlarni bildirgan.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarurligini ta’kidlab o‘tdilar[1].

Korrupsiya mavzusi, uning mohiyati va rivojlanishi hamda sabab va shart-sharoitlari iqtisod, huquqshunoslik, falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlarning tarixiy va doimiy hamda munozarali va dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar benihoya bahsli masala bo‘lib, ushbu omillarni aniqlash va tadqiq etishning ustuvor amaliy jihat shundaki, korrupsiyaga qarshi kurash, xususan, uning oldini olishda, birinchi galda, uni vujudga keltiruvchi omillar aniqlanishi hamda ularni bartaraf etuvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Zero, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yo‘li bilan kamaytirish yoki darajasini pasaytirish mumkin[2].

Sh.R.Qobilovning fikricha, davlatning ruxsat berish funksiyalarining haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biri hisoblanadi[3].

R.Klitgardning ta'kidlashicha, esa mansabdor shaxsning biror xo'jalik subyektiga zarur bo'lgan xizmatni ko'rsatish yoki ma'lum imtiyozni yaratib berishdagi «yakka hokimligi» ustidan nazoratning yo'qligi korruption kelishuvga olib kelishi mumkin. Shuningdek, Sh.R. Qobilov qonunlarning nomukammalligi, jamoat hayotining byurokratlashuvi, amaldorlarning ko'payib ketishi, tadbirkorlikning tashkiliy jihatdan qiyinlashuvi, vositachilarining ko'payishi kabilarni korrupsiyaning rivojlanishiga sharoit yaratuvchi sabablar sifatida keltiradi.

K.I. Golovshinskiyning aytishicha esa, davlat boshqaruvin organlarida «qonun osti aktlari»ni ishlab chiqish jarayonining to'liq nazorat qilinmasligi natijasida amaldagi qonunchilikda korrupsiogen, ya'ni korrupsiyaga sharoit yaratuvchi huquqiy normalar shakllanadi. Natijada qonunchilikda noaniq va tushunish qiyin bo'lgan huquqiy normalar va ko'rsatmalar yuzaga kelishi mumkin, bu esa mansabdor shaxslar uchun fuqarolarni qo'rqtish va pora olishga sharoit yaratadi[4].

A.V. Vohobovning ta'kidlashicha esa, korrupsiyaning tarqalish shiddati va qamrovi turli omillarga bog'liq. Bular dan eng muhimi, iqtisodiy erkinlikning cheklanishi, tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashuvi va nihoyat, tabiiy resurslarning davlat monopoliyasida bo'lishidir[5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korruption omillarni vujudga keltiruvchi asosiy sabablardan biri sifatida davlat boshqaruvida ma'muriy ruxsat berish va kelishish tartibotlarining ko'pligi hamda ularning idoraviy manfaatlar bilan uyg'unligi, shuningdek, qonun osti hujjalarda korrupsiogen normalarning saqlanib qolinayotganligini ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy hayotga davlatning imperativ ta'siri korrupsiyaning vujudga kelishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiya nafaqat g'ayrihuquqiy qilmish, ayni vaqtida jamiyat tomonidan keskin qoralanadigan tuban axloqiy xatti-harakat sifatida ham baholanadi. Shu sababli korrupsiya barcha hollarda yashirin shaklda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi sohasidagi ruxsat berish, kelishish, xo'jalik faoliyatini tekshirish, ularga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash, jismoniy va yuridik shaxlarining murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish kabi masalalar barcha uchun istalgan paytda tanishib chiqish imkonini vujudga keltirgan shaklda amalga oshirilishi, shuningdek, ruxsat olish yoki davlat xizmatlaridan foydalanish kabi masalalarda elektron navbat tizimi va unga qat'iy amal qilish mexanizmini joriy etish zarur. Modomiki, davlat organlari va xodimlarining ma'muriy faoliyati antikorruption organlarning nazorat qilishi hamda jamoatchilikning istalgan paytda tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi darkor. Binobarin, bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish lozimligini ta'kidlab o'tdi[6].

Davlat organlariga bildirilgan har qanday murojaat qanday shaklda berilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, darhol ro‘yxatga olinishi va tegishli organning veb-saytida o‘sha zahotiyoy aks ettirilishi lozim.

S.Niyozova va O.G’aniyev hamda Sh.Saidovlarning «korrupsiya ildizlari davlat xizmatlarini tashkil etishdagi nuqsonlarga va xizmatchilarning o‘ziga xos ruhiyatiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisadir[7]. Bu korrupsiyaga qarshi kurash, avvalo, ma’muriy-huquqiy va tashkiliy boshqaruv chora-tadbirlarini ko‘rish zarurligini belgilab beradi», degan fikriga to‘liq qo‘shilish mumkin.

Bizningcha, ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini quyidagi shaklda yanada kengroq tashkil etish kerak: Barcha normativ-huquqiy hujjatlarning loyihamonlari ishlab chiqishda korrupsiyaga qarshi ekspertizani amalga oshirish.

Amaldagi tartibdagi tartibga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi faqat adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq korrupsiyaga qarshi kurash umumxalq ishi hisoblanadi. Shu sababli normativ-huquqiy hujjatlarning korruption omillar bilan bog‘liq jihatlarini baholashning shunday mexanizmini joriy etish lozimki, unga ko‘ra, barcha fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlarning korruption omillar bilan bog‘liq jihatlarini baholash va bu jarayonlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart”.

Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan – fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o‘rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak» deb ta’kidlab o‘tgani ham fikrimizning yorqin dalilidir[8].

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositalaridan biri sifatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish e’tirof etilmoqda. Jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi qonun xujjalalariga rioya etmaslik holatlarini aniqlashga qaratilgan jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratga oid chora-tadbirlar majmuidir.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning jahon amaliyotida keng tarqalga shakllari – bu davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga oid jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik muhokamalari, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik tahlili yoki monitoringi, jamoatchilik surishtiruvi, jamoatchilik tekshiruvi, jamoatchilik so‘rovi, murojaatlar, jamoatchilik tashabbuslari hisoblanadi.

Shuningdek, yana bir keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri – bu davlatning mansabdarlar tomonidan o‘z lavozimini suiiste’mol qilinishiga qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi organlari bilan jamoatchilik nazorati subyektlarining o‘zaro hamkorligi bo‘lib, mazkur amaliyat keyingi yillarda korrupsiyaning oldin olishda eng samarali mexanizmlardan biriga aylandi. Chunki, davlat organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi organlar har doim ham to‘rachilik, korrupsiya kabi illatlarga barham berish, ya’ni ularni muntazam nazorat qilish yoki kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, ular odatda oldindan tuzilgan rejalar va tanlov asosidagi tekshiruvlar, shaxslarning murojaatlari kabilar orqali yoki huquqbazarlik alomatlari sezilgandagina xabardor bo‘lishadi, jamoatchilik esa, aynan mansabdar shaxslar bilan har kuni, har soatda to‘qnash keladi.

Jahon mamlakatlarida bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud: Ichki nazorat - bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat - bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish - demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta’sir o’tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyoti va uning xavfsizligi, chin insoniy qadriyatlarning qaror topishi hamda jamiyat farovonligi ko‘p jihatdan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarning qay darajada samarali tashkil etilganligiga bog‘liq. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash davlat va jamiyatning doimiy vazifasi bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz / Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.

2. Сайдов Ш. Коррупцияга қарши кураш: халқаро ва миллий амалиёт // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Олий ўқув курслари Ахборотномаси. – 2011. №. 4 (08).

3. Қобилов Ш.Р. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т., 2013. – Б. 633
4. Головщинский К.И. Диагностика коррупциогенности законодательства / Под ред. А. Сатарова и А. Краснова. – М., 2002. – С.25
5. Воҳобов А.В. Бозор муносабатларига ўтиш босқичидаги кўп уклади иқтисодиёт ва унинг тақроран ҳосил бўлиши: Монография. – Т., 2002. – Б.23.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрь кунидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <http://www.aza.uz>.
7. Niyozova S, G'aniyev O. Korrupsianing huquqiy tabiatи va uning ijtimoiy xavfiliги // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi – Т., 2011 – № 4 (08).
8. Saidov Sh. Korrupsiyaga qarshi kurash: xalqaro va milliy amaliyot // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. – 2011. №. 4 (08).